

## BADIIY ASARLARDA KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Davidov Yunus Jummayevich

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi.

[davidov\\_yunus@tersu.uz](mailto:davidov_yunus@tersu.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11520738>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ayrim so‘zlar misolida badiiy asarlardagi ko‘pma‘nolik hodisasi tahlil qilingan. Polisemantik so‘zlarning badiiy asarlarda obrazlilikni ta‘minlovchi vosita ekanligi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** polisemiya, obrazlilik, monosemiya, badiiy asar.

### THE USE OF AMBIGUOUS WORDS IN WORKS OF ART

**Abstract.** This article analyzes the phenomenon of polysemy in works of art on the example of some words. It is highlighted that polysemantic words are a means of providing imagery in artistic works.

**Key words:** polysemy, imagery, monosemy, artistic work.

### УПОТРЕБЛЕНИЕ МНОГОЗНАЧНЫХ СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА.

**Аннотация.** В данной статье анализируется явление многозначности в художественных произведениях на примере некоторых слов. Подчеркивается, что многозначные слова являются средством образного обеспечения художественных произведений.

**Ключевые слова:** многозначность, образность, моносемия, художественное произведение.

Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar bilangina emas, so‘zlarning leksik ma‘nolari bilan ham o‘lchanadi. Demak, so‘zlarning ko‘p ma‘noliligi – polisemiya til boyligida o‘z o‘rniga ega<sup>1</sup>.

Polisemantik so‘zning alohida olingan semalari qanchalik rang-barang bo‘lmasin, ular har doim yagona ma‘noviy asos tevaragida guruhlashadi. Ikkilamchi ma‘nolar dastlabki ma‘noning keyingi taraqqiyoti tarzida e‘tirof etiladi<sup>2</sup>. Darhaqiqat, Polisemiya bir til doirasida so‘zlarning turli ma‘nolari o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Borliqdagi predmet, hodisalarning o‘zaro mustahkam bog‘liqligini va uning tilda o‘z ifodasini topganini ko‘rsatadi. Polisemiyada ma‘no aniqligini belgilashda matnni hisobga olish lozim. Negaki polisemantik so‘zning anglatayotgan ma‘nosi gap tarkibidagi boshqa so‘zlar orqali ochiqilanadi. So‘zlarning ko‘p ma‘noliligi natijasida yuzaga keladigan ko‘chma ma‘no va ulardagi nozik atfenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi<sup>3</sup>. Har qanday monosemantik so‘zda polisemantik so‘zga aylanish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan o‘sha monosemantik so‘zga yangi ma‘nolar yuklatilishi mumkin. Lug‘atlarda polisemantik so‘zlarning barcha ma‘nosi keltirilmagan,

<sup>1</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент, “Фан”, 1975, 3-бет.

<sup>2</sup> Будагов Р.А. Введение в науку о языке. М., Учпедгиз, 1958, с. 39–50.

<sup>3</sup> Y.Davidov. “Mahtumqulining polisemantik so‘zlardan foydalanish mahorati”. “Mahtumquli-do‘stlik kuychisi” konferensiya to‘plami. Termiz, “Surxon ilm nashri”, 2024, 448-453.

polisemantik soʻzlar lugʻatlarda keltirilgan maʼnosidan tashqari yana bir qancha maʼnolarni ifodalashi mumkin. Masalan, OʻTILda oʻynamoq feʼlining dam olish, koʻngil ochish maqsadidagi biror mashgʻulot, oʻyin bilan shugʻullanmoq; dam olish, sayr etish; sport oʻyini bilan shugʻullanmoq, oʻyinda qatnashmoq; qaqs tushmoq; sahna asarida biror rolni ijro etmoq; harakatlantirmoq, aylantirmoq; hazillashmoq, gap bilan tegishmoq; turli xil shoʻx, yoqimli harakat qilmoq; koʻrk, goʻzallik aks ettirib harakatlanmoq, piriqiramoq, dirkillamoq; irgʻishlash, shox tashlash tarzidagi oʻynoqi harakat qilmoq; qabarib, boʻrtib chiqmoq kabi oʻn ikki<sup>4</sup> maʼnosi keltirilgan. Yuqoridagi maʼnolaridan tashqari oʻynamoq feʼlining badiiy asarlarda qoʻllangan yana quyidagi maʼnolarini keltirishimiz mumkin. *Zarrin kokardali furajkasi tagidan kalta qirqilgan qora sochlari daryo shamolida oʻynaydi.* (A.Muxtor. “Chinor”) Keltirilgan gapda oʻynamoq feʼli *harakatga kelmoq, tebranmoq* maʼnosida qoʻllanilgan. *Qiyin ahvolda qolsa hamki, choʻziq, qotma yuzida hayajonli quvonch shuʼlasi oʻynardi.* (A.Muxtor. “Chinor”) Bu gapda esa *aks etmoq, namoyon boʻlmoq* maʼnosida qoʻllanilgan. *Uch odamning joni bilan oʻynashyapsiz.* (A.Muxtor. “Chinor”) Bu gapda esa *eʼtiborga olmaslik, mensimay harakat qilmoq, qaltis harakat* kabi maʼnolar ifodasi uchun ishlatilgan. *Zebi necha yillik gʻam-tashvishlardan toʻrt-besh kun ichida ortigʻi bilan yozilib kelarkan, oʻz orqasida oʻynayotgan* oʻyinlardan xabarsiz edi. (Choʻlpon. “Kecha va kunduz”) Yuqoridagi gapda *kutilmagan voqea-hodisa yuz bermoq, (unga nisbatan) amalga oshayotgan* kabi maʼnolarni qisqa tarzda ifodalashga xizmat qilgan. ...*Bir gorodovoy qamchi oʻynatib, olomonning orasini yorib, qalandarlariga yoʻl boʻshattirib kelar edi.* (Gʻ. Gʻulom. “Shum bola”) Bu gapda esa *harakatlantirmoq, silkitmoq* kabi maʼnolar ifodasi uchun ishlatilgan. *Uning barmoqlari dutor qillarida mohir oʻynadi.* (Oybek. “Qutlugʻ qon”) Keltirilgan gapda *yoqimli harakat qilmoq; chalmoq, chertmoq* maʼnosida qoʻllanilgan. *Shaloladek shagʻillab, Shovqin-suron qaynaydi; Mashinalar oʻynaydi, Yonib, porlab, gurullab.* (H. Olimjon. *Tanlangan asarlar*) Bu gapda oʻynamoq feʼli *tez harakat qilmoq, oʻtib- qaytmoq* maʼnosini anglatgan. Badiiy asarlarda oʻynamoq feʼli turli maʼnolarda qoʻllangan boʻlib, yozuvchining soʻz qoʻllash mahorati bilan bogʻliq ravishda turli obraz yaratishga xizmat qilgan. M.Mirtojiyev taʼkidlaganidek, polisemiya sivilizatsiya belgisidir. Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, sanʼat taraqqiy etgan boʻlsa, oʻsha xalq obyektiv borliqning oʻzaro aloqasini shuncha koʻproq koʻradi, ularni bir-biriga koʻproq qiyos etadi va bular tilda koʻproq oʻz aksini topadi. Soʻz maʼnolarini oʻzgartirib turuvchi taraqqiyotlar ketma-ket sodir boʻlib turadi. Bu esa polisemantik soʻzlar taraqqiyoti uchun sabab boʻladi<sup>5</sup>. OʻTILda *yurmoq* feʼlining qadam tashlamoq; maʼlum yoʻnalishda harakat qilmoq; bir joydan siljimoq, suzmoq, sayr qilmoq, kezmoq, aylanmoq; yashamoq, hayot kechirmoq, istiqomat qilmoq; ish-faoliyatda birga boʻlmoq; qatnamoq; davom etmoq; shaxmat, qarta kabi oʻyinlarda harakat qilmoq, oʻynamoq; harakatga kelmoq, ishlamoq; yaqin munosabatda boʻlmoq; rozi boʻlmoq, koʻnmoq; tarqalmoq, yoyilmoq; biror tomonga joʻnash, ketishga undash kabi oʻn toʻrt<sup>6</sup> maʼnosi izohlangan. Biz kuzatgan badiiy asarlarda bu feʼlining yana bir qancha maʼnolari aniqlandi. *Koʻnglimda bir nima yuribdi.* (Togʻay Murod “Oydinda yurgan odamlar”) Bu gapda *yurmoq* feʼli metafora asosida koʻchim hosil qilib, *mavjud boʻlmoq, bor boʻlmoq* maʼnosini anglatishga xizmat qilgan. *Qismda bemalol, yasan-tusan qilib yurgan*

<sup>4</sup> ЎТИЛ. –Тошкент: “Oʻzbekiston nashryoti” 2020.5-жилд. – Б 144.

<sup>5</sup> Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984. – 135.

<sup>6</sup> OʻTIL . 6-jild. –Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – Б 290.

ayollarni ko‘rib, ko‘nglimda taskin uyg‘ongandek bo‘ldi. (O‘. Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”) Keltirilgan gapda yurmoq fe‘li faoliyat qilmoq, ishlamoq ma‘nosida qo‘llanilgan. Bu **yurishigda** xarob bo‘lasan! Hoziroq shaharga jo‘na. (O‘. Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”) Yurmoq fe‘li bu gapda harakat qilmoq, faoliyat yuritmoq kabi ma‘nolarni bir so‘z bilan ifodalagan. **Teskari tashviqot yurgizgan** ekan. (X.To‘xtaboyev. “Jannati odamlar”) Yuqorida keltirilgan gapda yurgizmoq fe‘li olib bormoq, o‘tkazmoq kabi metaforik ma‘no ifodalab kelgan. Undan keyin qavmning namozga kam **yurganiga**, boylarning zakot va sadaqa xususida shariat amridan chetlashganlariga, qishloq odamlari orasida “xamr”, ya‘ni aroq ichadiganlarning ko‘payganiga o‘tdi...(Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”) Bu misolda esa qatnashmoq, ishtirok etmoq kabi ma‘nolar ifodasi uchun xizmat qilgan. Oyni kutgan oqshomgi ko‘kda Beshik-beshik bulut **yurardi**. (Zulfiya. Saylanma ) Bu gapda yurmoq fe‘li harakat qilmoq, suzmoq, jilmoq kabi ma‘no ifodlagan. O‘zbek deyin desam – bari kofirlar yo‘lidan **yuribdi**. Musulmon bo‘p – musulmon emas, kofir bo‘p – kofir emas. (Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”) Keltirilgan gapda yurmoq fe‘li ergashmoq, (ularga) o‘xshamoq kabi ma‘no anglatgan. Asarlarda yurmoq fe‘li harakatlanmoq, yozmoq kabi ma‘nolarni ham anglatgan: **Qalamimning yurishi xitroq Bo‘lsa, sizga intiqlik sezgum**. (Zulfiya. Saylanma ) Bu fe‘l bo‘lmoq, mavjud (bor) bo‘lmoq kabi ma‘nolar ifodasi uchun ham ishlatilgan: **Hayotimda bo‘lmasangiz ham, Xayolimda yurdilaringiz**. (M. Yusuf. Saylanma) Yurmoq fe‘lining aylantirmoq, harakatga keltirmoq kabi ma‘nolari ham kuzatildi: **Suv odamning mardikori: hosil beradi, tegirmon yurgizadi**. (M. Yusuf. Saylanma) Yurmoq fe‘li badiiy asarlarda, asosan, metaforik ma‘no ifodalab, bir qancha tushunchalar ifodasiga xizmat qilgan. Umuman olganda, badiiy asarlarda ko‘p ma‘noli so‘zlar ta‘sirchanlikni obrazlilikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan polisemiya natijasida yuzaga keladigan ko‘chimlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biridir.

#### REFERENCES

1. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент, “Фан”, 1975, 3-бет.
2. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. М., Учпедгиз, 1958, с. 39–50.
3. Y.Davidov“Maxtumqulining polisemantik so‘zlardan foydalanish mahorati”. “Maxtumquli-do‘stlik kuychisi” konferensiya to‘plami. Termiz, “Surxon ilm nashri”, 2024, 448-453.
4. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984. – 135.
5. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 245-247.
6. Davidov Y. J. Badiiy nutqning o‘ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 947-952.
7. Davidov Y. J. KO ‘P MA‘NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO‘LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 500-503.
8. Davidov Y. ASPECTS OF DISAMBIGUATION DIFFERENT FROM COGNATE WORDS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 906-909.

9. Davidov Y. O‘ZBEK TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARINING QIYOSI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 836-839.
10. Davidov Y. J. WORD FORMATION PATTERNS IN UZBEK LANGUAGE //International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. – 2021. – С. 16-21.
11. Davidov Y. The uniqueness of speech styles in terms of the use of speech tools //Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 46-49.
12. Давыдов Ю. Д., Базаров Ш. А. ФЕНОМЕН НЕОДНОЗНАЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 7.
13. Jamshid, Bo‘riyev. "YOZUVCHI ERKIN AZAMNING OGZAKI NUTQQA XOS LEKSIK VA GRAMMATIK VOSITALARDAN USLUBIY FOYDALANISH MAHORATI." Евразийский журнал академических исследований 2, no. 1 (2022): 169-174.
14. Jamshid, Buriyev. "EXPRESSION OF DESCRIPTIVE ORAL UNITS IN THE WORKS OF ERKIN AZAM." In Archive of Conferences, pp. 80-83. 2021.